

Nilufar Shamsiyeva

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O‘zbek tili va adabiyoti universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti

kechki ta’lim 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada detektiv asarlarning bolalar psixologiyasidagi ta’siri masalasi yoritiladi, shuningdek, detektiv atamasi va detektiv adabiyot nazariyalar haqida ham fikr-mulohazalar keltirilgan. Detektiv asarlar bolalarda tafakkur, kuzatuvchanlik va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishi bilan birga ayrim hollarda psixologik zo‘riqish yoki salbiy hissiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Maqolada detektiv asarlar tahlil qilinib, ularning bolalar yoshiga mosligi va psixologik ta’siri aniqlanadi.

Kalit so‘zlar. Detektiv asarlar, detektiv adabiyot, bola psixologiyasi, badiiy adabiyot, psixologik ta’sir, shaxsiy fikr, aqliy qobiliyat

Annotation. In this article, the issue of the impact of detective works on children’s psychology is examined. In addition, opinions and discussions are presented on the concept of detective fiction and the theories of detective literature. While detective works can contribute to the development of children’s thinking, observation skills, and logical reasoning, in some cases they may also cause psychological stress or negative emotional states. The article analyzes detective works and determines their suitability for children’s age as well as their psychological impact.

Keywords. Detective works, detective literature, child psychology, fiction, psychological impact, personal opinion, intellectual ability.

“Detektiv” (lotincha: “detektio” – ochaman, fosh qilaman) atamasi ilk marta amerikalik yozuvchi Anna Ketrin Grin tomonidan qo‘llanilgan. Anna haqli ravishda “detektivning onasi” hisoblanadi. Annaning dastlabki detektiv romani “Leavenworth ishi” 1878-yilda ulkan muvaffaqiyatga erishdi. Shundan song detektiv janri keng quloq ochdi va yuqori cho‘qqiga chiqdi. Ingliz yozuvchisi, detektiv janr ustasi Agata Kristi ushbu janrning rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Uning bu janrdagi asarlarining muvaffaqiyatini syujetining qiziqarliligi, personajlarining yorqinligi va shuningdek, yechimning kutilmaganda sodir bo‘lishi bilan izohlash mumkin. Uning tan olishicha, Agata

advokatning qizi bo‘lgan. Shuning uchun u tergov va sud tergov jarayonlarining nozik sir-sinoatli qirralarini bilgan va uning boy tasavvur qobiliyati unga dahshatli sir va murakkab jinoyatlarni fosh qilishda yordam bergan. Detektiv janri rivojlanishi bilan ayni vaqtda, sud tibbiyotida ham aqlbovar qilmas o‘shlar kuzatildi. Dastlab identifikatsiya tizimi paydo bo‘ldi. Inson qonini hayvon qonidan farqlash o‘rganildi. Detektiv janri bu kashfiyotlarni o‘ziga yaxshigina singdirdi. Janr qiyosiy jihatdan yosh bo‘lishiga qaramay, detektiv tarixida ko‘plab tarixiy nomlar bor: Edgar Alan Po, A. Kristi, Artur Konan Doyl va boshqalar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Konan Doyldan bir necha yil avval bir-biriga qarama-qarshi qahramonlar ishtirokida detektiv hikoyalar yozishni boshlagan Ellen Vud butun umri davomida og‘ir xastalikdan aziyat chekdi, biroq bu uning adabiy iste’dodi tufayli besh farzandni dunyoga keltirishi va ularni xavfsiz qo‘llab-quvvatlashiga to‘sqinlik qilmadi. Gay Butbi Avstraliyada tug‘ilgan, kezib yurgan, ko‘plab sarguzashtlarni boshdan kechirgan va o‘zining ekzotik taassurotlarini yorqin adabiy karerada muvaffaqiyatli aks ettirishga harakat qilgan. Ko‘pgina tadqiqotchilar Doyldan keyin paydo bo‘lgan detektiv mualliflarning asosiy vazifasi buyuk Xolmsdan farq qiladigan detektiv yaratish ekanligiga qo‘shiladilar. Darhaqiqat, siz jahon detektiv adabiyotida hech qanday obrazni uchratmaysiz: psixik detektiv, detektiv-rus knyazi, har doim bir stakan sut va arqon bilan burchakda o‘tiradigan chol, ko‘r detektiv, son-sanoqsiz, ajoyib detektiv qobiliyatlarini namoyon etgan xonimlar.¹

Detektiv adabiyot – jinoyatlarni ochish jarayoni tasvirlangan hikoya, qissa, romanlar. Bu janr asoschisi Edgar Allan Poe („The Murders in the Rue Morgue“ („Morg ko‘chasidagi qotillik“), 1841; va boshqa novellalar). Detektiv adabiyot mumtoz asarlarida jinoyatning ochilishi mantiqiy asosda tasvirlanadi (A. K. Doil, K. G. Chesterton, E. Gaborio, A. Kristi, R. Staut). Janrning keyingi taraqqiyoti detektiv adabiyotda ijtimoiy-ruhiy motivlarning paydo bo‘lishi (J. Simenon, Matsumoto Seytyo), qonun himoyachilarining jinoyatchilar dunyosi bilan bevosita kurashi tasvirlangan turli-tuman detektiv adabiyot paydo bo‘lishi (D. Hammett, R. T. Chandler va boshqalar) bilan bog‘liq. O‘zbek adabiyotida ham detektiv adabiyot namunalari yaratilgan (Shuhrat, „Bir kecha fojiasi“; O‘. Umarbekov, „Yoz yomg‘iri“; O. Muxtor, „Mo‘jiza“; Tohir Malik, „Shaytanat“ va boshqalar).²

¹ “BADIY ADABIYOTDA DETEKTIV JANR XUSUSIYATLARI” maqolasi

² O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 03. Issue 01. January 2026

Detektiv asarlar – sirli voqea va jarayonlar, jinoyat yoki muammo atrofida rivojlanib, uni mantiqiy tahlil qiladi ham turli izlanishlar orqali ochib berishga asoslangan badiiy janr turi hisoblanadi. Bu turdagi asarlarda asosiy diqqat-e’tibor voqealar sababini aniqlash, yashirin va sirli haqiqatni izlash hamda adolatni qaror toptirish jarayoniga qaratilgan bo‘ladi. Detektiv asarlar kitobxonni hushyorlik, epcchilik, diqqat bilan kuzatish va mantiqan fikr qilish, mustaqil erkinlikda bo‘lish singari xususiyatlari bilan boshqa sohalardan ajralib turadi.

V. Bryusovning ta’rifiga kora, aynan, detektiv janri topishmoq va jumboqning eng yuqori figurasiga aylandi, aks holda, kitobxon tomonidan yechilishi uchun taklif qilingan noma’lum tenglamalardir. Qobiliyatli detektiv asarda, kitobxonga jumboqni unga taqdim etilgan ma’lumotlardan foydalangan holda mustaqil ravishda hal etish imkoniyatini beradi. Bu aqliy mehnat talab etadi. Ya’ni, detektiv murakkab arifmetik amallarni yechishga o‘xshash jumboq adabiyot namunasidir.

Detektiv asarlarda asosan bosh qahramon — tergovchi, kuzatuvchi shaxs yoki oddiy inson bo‘lib, u voqealar rivoji davomida turli dalillarni to‘playdi hamda ularni tahlil qilib xulosa keltiradi. Syujet ko‘pincha sirli holat bilan boshlanadi va asta-sekin voqealar barqarorlashib boradi. O‘quvchi ham qahramon bilan birga mazmunan fikrlab taxminlar qiladi va voqeaning yechimini topishga harakat qiladi. Bu janrning muhim jihati shundaki, u mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi. Voqealar zanjiridagi sabab–oqibat munosabatlarini anglash, dalillarni solishtirish va xulosa chiqarish jarayoni o‘quvchining tahliliy fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi. Shu sababli detektiv asarlar nafaqat qiziqarli o‘qiladi, balki aqliy faoliyatni ham faollashtirishga yordam beradi.

Detektiv asarlardagi bosh qahramon, odatda, deduktiv tafakkurning o‘ziga xos shakliga ega bo‘ladi, uning shaxsiy fazilatlarini esa soddalashtirilgan va sxematik tarzda ifodalanadi. Ushbu janr xususiyati E. N. Gerasimenko tomonidan ham ta’kidlangan bo‘lib, u shunday yozadi: “Detektiv doimo sirga asoslanadi va o‘quvchi uni muallifdan keyin mustaqil ravishda hal etadi. Bu jarayon nafaqat mantiqiy mushohada yuritishni, balki deduktiv qobiliyatlar hamda inson psixologiyasini anglash imkonini beradi. Bundan tashqari, sifatli detektiv asarning muhim belgisi jinoyatni ochish va jinoyatchini jazolash bilan bog‘liq axloqiy g‘oyalarning mavjudligidir”.

Detektiv asarlar badiiy til va tasvir vositalariga boy bo‘lib, o‘quvchining nutqi va so‘z boyligini oshirishga yordam beradi. Voqealarning keskinligi va syujetning qiziqarli tarzda yozilishi o‘quvchi-yoshlarni ma’nan kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 03. Issue 01. January 2026

kuchaytiradi, diqqatni jamlash va matnni chuqur anglash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa o‘quvchilarning kelajakda o‘z sohasini yetuk egallashi uchun zamin yaratadi.

Har qanday detektiv asarning asosiy vazifasi sirli jumboqni yechish va sodir etilgan jinoyatni fosh etishdan iborat. Asar davomida mantiqiy fikrlash jarayoni shakllanadi va aynan shu jarayon orqali bosh qahramon dalillar tizimi asosida haqiqatga yaqinlashadi. Jinoyatni ochib berish tergovchi zimmasidagi asosiy va muqarrar vazifa hisoblanadi. Biroq asarda yetakchi o‘rin doimo tergov jarayoniga beriladi, shu sababli qahramonlarning xarakteri hamda ichki kechinmalarini tasvirlash ikkinchi darajaga suriladi. Aksariyat hollarda sirli holatlar tergovchiga ham, o‘quvchiga ham ma‘lum bo‘lgan faktlarga tayangan holda olib boriladigan mantiqiy mushohada orqali hal etiladi.

Detektiv asarlarga xos bo‘lgan bunday kompozitsion tuzilma o‘ziga xos xarakterlar tizimini yuzaga keltiradi: bir tomonda salbiy obrazlar (jinoyatchi va uning hamkorlari), ikkinchi tomonda esa ijobiy qahramonlar (tergovchi, uning yordamchilari hamda jabrlanuvchilar) joylashadi. Har ikkala tomon ham jinoyatning ochilishiga, ya‘ni adolatning zulm ustidan g‘alaba qozonishiga olib keluvchi voqea-hodisalar va faktlar ketma-ketligi bilan o‘zaro bog‘langan bo‘ladi.

Bolalar va o‘smirlar uchun mo‘ljallangan detektiv asarlar orqali bolalarda adolat, halollik, mas‘uliyat va to‘g‘ri qaror qabul qilish kabi fazilatlar shakllanadi. Shu bilan birga, yoshga mos tanlanmagan yoki haddan ortiq keskin voqealarni o‘z ichiga olgan detektiv asarlar bola ruhiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun detektiv adabiyotlarni tanlashda yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, adabiy hikoyalarni o‘qish empatiya —(“ehtiros”, “azob”, “hissiyot”, “hamdardlik”) - bu tajribaning kelib chiqishi tuyg‘usini yo‘qotmasdan, boshqa odamning hozirgi hissiy holatiga ongli hamdardlik.³ Shunga ko‘ra, empatiya – bu empatiya qobiliyati rivojlangan shaxs, ya‘ni boshqalarni tushunish va ularga nisbatan hissiy sezgirlikni oshirish bilan bog‘liq. Detektiv asarlar syujetidagi murakkab holatlar va ularni hal etish jarayoni bola hissiy intellektini ham rivojlantiradi hamda shakllantirishga yordam beradi. Bolalar qahramonlar qanday qarorlar qabul qilganini ko‘rib, qiyin holatlarda qanday harakat qilishni tasavvur qiladilar, bu esa ularning hissiy moslashuvchanligini oshiradi.

Detektiv hikoyalarda sirli jumboqlar va voqealar ketma-ketligi bolaning tasavvurini faol ishlashga undaydi. Tasavvur qilish bolaning ichki olamini boyitadi, abstrakt fikrlash

³ „<https://ru.wikipedia.org/>“

va yangi g‘oyalarni yaratish imkonini kengaytiradi. Muammoni yechish jarayoni, voqealarni yaratish jarayoni bolada qiyinchiliklarni hal qilishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Detektiv asarlar bolaning nutqiy va hissiy rivojiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Asar matnidagi dialoglar, tasvirlar va voqealar ketma-ketligi bolaning so‘z boyligini oshiradi, fikrini aniq va ravon ifodalashiga yordam beradi. Qahramonlarning ichki kechinmalari va qarorlarini kuzatish esa bolada empatiya tuyg‘usini kuchaytirib, atrofdagilarning holatini tushunishga o‘rgatadi. Bu jarayon bola shaxsining ijtimoiy moslashuvchanligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, detektiv asarlar bolalar psixologiyasiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan muhim badiiy vosita hisoblanadi. Bu janr bolani faqatgina qiziqarli voqealar bilan band qilib qo‘ymaydi, balki uni faol fikrlashga, kuzatishga va tahlil qilishga chorlaydi. Voqealar rivojini anglash, sabab va oqibatlarni solishtirish, yashirin ma’nolarni topishga urinish bola tafakkurining izchil rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu orqali bolada mustaqil fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish va muammoni hal etish ko‘nikmalari shakllanadi.

Shu bilan birga, detektiv asarlarning bola ruhiyatiga ta’siri ularning mazmuni va yoshga mos tanlanishiga bevosita bog‘liqdir. To‘g‘ri tanlangan, tarbiyaviy g‘oya va ijobiy qahramonlar bilan boyitilgan detektiv asarlar bolada adolat, halollik va mas’uliyat kabi fazilatlarini oshiradi. Aksincha, haddan tashqari keskin yoki murakkab syujetli asarlar bolaning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois kattalar tomonidan kitob tanlash va o‘qilgan asar yuzasidan suhbat olib borish muhim hisoblanadi. Umuman olganda, detektiv asarlar bolani fikrlovchi, kuzatuvchan va faol shaxs sifatida tarbiyalashda samarali adabiy vosita bo‘la oladi. Bu janr bolada intellektual faollikni oshirish, nutq madaniyatini rivojlantirish va ruhiy yetuklikni shakllantirishga xizmat qiladi. To‘g‘ri yondashuv va ongli tanlov asosida detektiv asarlar bolalar tarbiyasida ijobiy natija beruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.


Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Borisenko A. Faqat Xolms emas – [https:// magazines.russ.ru/inostran/2008](https://magazines.russ.ru/inostran/2008)
2. S.S.Dyne. Detektiv yozishning yigirma qoidasi–<https://scriptmaking.ru/library/189>
3. Abdusalimova Sadoqatxon Adxamjon qizi “Detektiv janrining strukturaviy va kompozitsion xususiyatlari
4. Dyne S. S. Detektiv yozishning 20qoidasi:-<http://scriptmaking.ru/library/189/42308/one-dine-ss-twenty-rules-for-writing-detectivenovels.html>

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN
SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”**

Volume 03. Issue 01. January 2026

5. Konan Doyl Эюд в багровых тонах-<http://adelanta.info/library/detective/957>.
6. Ravshanovna, G. N.(2021). Methods of development toleranceskills pupils in primary school. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1221-1224.
7. Mirzayeva, D. (2019). THE CONCEPT OF “ FRIENDSHIP” IN UZBEK AND ENGLISH LINGUISTIC CULTURE. Мирваянаука, (11), 29-32.
8. Mirzaeva, D. I. (2020). THE ROLE OF PAREMIOLOGY IN THE LANGUAGE SYSTEM. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(6), 245-251.



**Research Science and
Innovation House**